

*Innovative Development in
Educational Activities*

INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO
THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE
EDUCATION IN THE 21ST CENTURY 2022/8

ISSN: 2181-3523

30 NOVEMBER, 2022 YEAR

International Scientific Conference



PKP | INDEX

Innovative Development in Educational Activities



“INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY 2022/8”

openidea.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик

TASHKENT, UZBEKISTAN

2022/ NOVEMBER 30

SEMIZLIKNI TURLI FENOTIPLARIDA KARDIOMETABOLIK XAVF OMILLARINI ANIQLASH

Zubaydullaeva Maqsuda Turapjanovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 1-son ichki kasalliklar kafedrası dotsenti t.f.n

Majidov Sharifjon Xusenovich

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Kardiologiya” yo‘nalishi 2 kurs magistri

E-mail: smajidov70@gmail.com

ANNOTATSIYA

Semizlik- hozirgi kunda eng muhim tibbiy- ijtimoiy muammoga aylangan bo‘lib, Butun Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, 1975 yildan boshlab 2016 yilgacha semizlik bilan kasallangan 18 yoshdan katta bo‘lgan bemorlar soni 3 barobarga oshgan bo‘lib, bu 1.9 mlrni tashkil etmoqda. Buning natijasida semizlik sababli kelib chiqadigan kasalliklarning ham sonini oshishiga sabab bo‘ldi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, ortiqcha vazn va semizlik bilan muammolari bo‘lgan insonlarning 44-57% ida Qandli diabet (II-tip), 17-23% Yurak ishemik kasaligi, 17% arterial gipertenziya, 30% o‘t-tosh kasaligi, 14 % osteoartrit, 11% ida xavfli o‘smalar kelib chiqish xavfi yotadi. Bularni hammasi insonlarning hayot sifati buzilishi va erta mehnat qobiliyatidan ayrilishiga olib keladi. Shunday xavfli oqibatlar asosida Semizlik hozirgi kunda sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy sohadagi eng muhim muammolardan biriga aylangan.

Kalit so‘zlar: Matebolik sog‘lom semizlik, Metabolik nosog‘lom semizlik,

“National Cholesterol Education Program(NCEP) Adult Treatment Panel III (ATP III)”

DETERMINATION OF CARDIOMETABOLIC RISK FACTORS IN DIFFERENT PHENOTYPES OF OBESITY

Annotation: Obesity has now become the most important medical and social treatment, according to the World Health Organization as a whole, since 1975 until 2016, the number of patients with obesity older than 18 years has increased by 3 times, which is 1.9 billion. This resulted in an increase in the number of diseases caused by obesity as well. According to the World Health Organization, 44-57% of people with problems with excess weight and obesity have diabetes mellitus (type II), 17-23% has coronar heart disease, 17% have arterial hypertension, 30% have gallstone disease, 14% have osteoarthritis, 11% have a risk of developing malignant tumors. All these leads to a violation of the quality of life of people and the loss of early working capacity. Based on such dangerous consequences, obesity has now become one of the most important problems in the health and social sphere.

Keywords: Metabolic healthy obesity, metabolic unhealthy obesity.

Maqsad: Semizlikni turli fenotiplarida metabolik o'zgarishlarni yurak qon-tomir sistemasiga bo'lgan ta'sirini aniqlash va ularni bartaraf etish usullarni o'rganish.

Tadqiqot: Yurak qon tomir tizimida kuzatiladigan quyidagi: birinchi paydo bo'lgan stenokardiya, infarkt miokard, to'satdan yurak o'limi, surunkali yurak yetishmovchiligi, aterosleroz, essensial arterial gipertoniya kabi kasalliklarda kelib chiqishga asosiy sabab bo'luvchi omil bu organizmdagi metabolik moddalar almashinuvini buzilishi yotadi. Metabolik moddalar almashinuvini buzilishi barcha semiz insonlar o'rtasida ham kuzatilmaydi. Shunga ko'ra Semizlik 2 turdagi fenotipga ajratilgan:

- Metabolik sog'lom semizlik
- Metabolik nosog'lom semizlik

Semizlikni bu guruhlarga ajratishda 30dan ortiq ilmiq taqdiqotlar o'tkazilgan bo'lsa ham haligacha o'z tasdig'ini topmagan muammolar bor ammo aniq me'zonlari yo'q. Hozirda bu guruhlarga bo'lishda keng qo'llanib kelinayotgan me'zonlardan biri bu "National Cholesterol Education Program(NCEP) Adult Treatment Panel III (ATP III)"da tasdiqlangan, bu klassifikatsiyada bemorlarni quyidagi ko'rsatkichlariga qarab ajratiladi:

- Arterial qon bosimi: SAB(>130) va DAB >85 mm.sim.ust
- Triglitsridlar qondagi miqdori: ≥ 1.7 mmol/l
- ZYuLP qondagi miqdori : Erkaklarda <1.03 mmol/l

Ayollarda:<1.29 mmol/l

- Nahorgi qondagi glyukoza miqdori: ≥ 5.6 mmol/l

- Bel aylanasini : Erkaklarda : >102sm

Ayollarda: > 88 sm

2021-yil Germaniya institutlari tomonidan metabolik sog'lom semizlik va metabolik nosog'lom semizliklarni ajratishda yagona mezonni taklif etishdi.

Bu me'zon bemorlarni asosan 3 ta muhim bo'lgan klinik holatlarini baholash orqali guruhlarga ajratiladi:

- Arterial qon bosimi: SAB(>130) va DAB >85 mm.sim.ust
- Nahorgi qondagi glyukoza miqdori: ≥ 5.6 mmol/l
- Bel aylanasini son aylanisiga nisbati: Erkaklarda : <1.03

Ayollarda: <0.95

Bu klassifikatsiyaga ko'ra semizliklarning 40 % Sog'lom metabolik semizlik fenotipiga kiradi. Bu fenotipga asosan ayollar ,yoshlar va tana massa indekisi <35kg/m² dan oshmagan ortiqcha vaznga ega bo'lgan bemorlar kiradi.

Amerika Endokrinologlar assotsiatsiyasi xulosasiga ko'ra semizlikni "Metabolik sog'lom semizlik" fenotipi tibbiyot nuqtai nazarida oraliq holat bo'lib,

oldini olinmasa keyinchalik prognozi “Metabolik nosog‘lom semizlik”ka o‘tadi. Buni uzoq yillik 8 ta tadqiqotlarni metaanaliz qilinishi orqali metabolik sog‘lom semizliklarda 10 yildan ortiq vaqt davomida bemorlarda qandli diabet 2 tip, dislipedemiya va arterial bosimini oshishi kabi kardiometabolik xavf omillari oshib borgani aniqlangan.

Rossiya sog‘liqni saqlash tashkilotining rekomendatsiyasiga ko‘ra semizliklarda kardiometabolik xavf omillari og‘irligiga qarab 3 ta guruhga bo‘lingan.

Kardiometabolik xavf omillari darajasi	Klinik holatlar	Yaqin 10 yil ichida yurak-qon tomir kasalliklar kelib chiqish xavfi	15 yil ichida qandli diabet II tip kelib chiqishi
Past darajagi xavf	-MTI <25 kg/m ² -Semizlik bilan kelib chiqqan kasalliklar yo‘q -SCORE <1% -CMDS 0-1	<1% past	≤7%
O‘rta darajadagi xavf	-MTI ≥25 kg/m ² -Semizlik bilan kelib chiqqan kasalliklar 1 yoki ko‘p yengil darajada -SCORE >1 dan >5% -CMDS 2-3	>1 dan >5% o‘rtacha	>7 dan ≤23%
Yuqori darajadagi xavf	-MTI ≥25 kg/m ² -Semizlik bilan kelib chiqqan kasalliklar 1 yoki ko‘p og‘ir darajada -SCORE >5% -CMDS 4	>5% juda yuqori	>23% yoki Qandli diabet II tip

Xulosa: Biz yuqorida Amerika, yevropa va Rossiya olimlarining semizliklarni “metabolik sog‘lom semizlik” va “metabolik nosog‘lom semizlik” fenotiplari ustida olib borilgan ko‘plab tadqiqot natijalari bilan tanishdik va ularni taqqoslab o‘rganib chiqdik. Bu o‘rganishlar natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi: Ortiqcha

vazndan aziyat chekayotgan bemorlarni “Metabolik sog‘lom semizlik” va “metabolik nosog‘lom semizlik” fenotiplarda ajratishda bemorlarning arterial qon bosimi, qondagi qand miqdori va bel aylanasini son aylanasiga nisbati kabi ko‘rsatkichlari orqali ajratiladi. Metabolik sog‘lom semizlik fenotipi ham oraliq klinik holat bo‘lib prognozida kardiometabolik xavf omillari oshib boradi. Shuning uchun ham “Metabolik sog‘lom semizlik” fenotipiga mansub bo‘lgan bemorlar ustida ham profilaktik chora tadbirlarni o‘tkazishimiz kerak bo‘ladi. Semizlikka doimo qarshi kurashishimiz kerak, chunki bu insonni ijtimoiy-sotsial sohada, hamda sog‘lig‘ida ham bir qancha muammolarga sabab bo‘luvchi kasallik hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Драпкина О. М., Самородская И. В., Старинская М. А., Ким О. Т
“Ожирение: оценка и тактика ведения
2. Mechanick JI, Hurley DL, Garvey WT. Adiposity-based chronic disease as a new diagnostic term: the American association of clinical endocrinologists and American college of endocrinology position statement. *Endocr Pract.* 2017;23(3):372-8.
3. Дедов И. И., Мельниченко Г. А., Шестакова М. В. и др. Национальные клинические рекомендации по лечению морбидного ожирения у взрослых. 3-ий пересмотр (лечение морбидного ожирения у взрослых). Ожирение и метаболизм. 2018;15(1):53- 70. doi:1014341/omet2018153-70.
4. Keys A, Fidanza F, Karvonen N, et al. Indices of relative weight and obesity. *J Chronic Dis.* 1972;25:329-43. Reprinted *Int J Epidemiol.* 2014. doi:101093/ije/dyu058.
5. Komaroff M. For Researchers on Obesity: Historical Review of Extra Body Weight
6. Definitions. *J Obes.* 2016;2016:2460285. doi:101155/2016/2460285.
7. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/obesity-and-overweight>.

22

**SEMIZLIKNI TURLI FENOTIPLARIDA KARDIOMETABOLIK XAVF
OMILLARINI ANIQLASH**

Zubaydullaeva Maqsuda Turapjanovna.,

Majidov Sharifjon Xusenovich

Page No.: 101-105

23

ПРОЦЕСС СУШКИ ВИНОГРАДА И ЭТАПЫ ЕГО ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ

Юсупов Мухторжон Тожибоевич.,

Тожибоев Абдумўмин Мухторжон ўғли

Page No.: 106-109

24

**ИЧКИ ТУРИЗМ ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ СУБЪЕКТЛАР ВА
ОБЪЕКТЛАРИНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАЛАРИ**

Назарова Б.Ў

Page No.: 110-115

25

**MUHAMMAD YUSUFNING "SINGLIMGA MAKTUB" SHE'RIDAGI
FITONIM OBRAZLAR TAHLILI, ULARGA XOS MA'NO JIHATLARNING
IFODALANISHI**

Mubinova Aziza

Page No.: 116-120

26

**FEATURES OF THE POST-APOCALYPTIC NOVEL IN THE MODERN
LITERATURE**

Gizdulin E.F

Page No.: 121-124

27

**TIL VA JAMIYATNING O'ZARO MUNOSABATLARIDA NUTQINI
IJTIMOIY-LISONIY ASPEKTIDA TADQIQ ETISH**

A.Rasulova., Raxmonqulova Maftunaxon Farg'ona

Page No.: 125-128

28

JISMONIY MASHG'ULOTLARNING TA'SIRI

O'lmasova Shahzoda Dilshod qizi

Page No.: 129-131